

Toshkent shahrida oliy ta'lim


2024/2025-o'quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
- II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
- III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
- IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
- VI. Oliy ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari

Toshkent shahrida 2024/2025-o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni **98 tani** tashkil etgan va 2020/2021-o'quv yili boshiga nisbatan **47 taga**, ya'ni **47,9 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2024/2025-o'quv yili boshiga respublikada jami **60 ta** nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2020/2021-o'quv yiliga nisbatan ularning soni deyarli **4 barobarga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025- o'quv yili boshiga, birlik)

	Oliy ta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari
Toshkent sh.	98	60
<i>tumanlar</i>		
Uchtepa	2	1
Bektemir	-	-
Yunusobod	14	8
Mirzo Ulug'bek	21	12
Mirobod	10	4
Shayxontoxur	10	6
Olmazor	11	6
Sergeli	1	1
Yakkasaroy	10	7
Yashnobod	4	3
Yangihayot	-	-
Chilonzor	15	12

2024/2025-o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining eng ko'p qismi Mirzo Ulug'bek (**21 ta**), Chilonzor (**15 ta**) va Yunusobod (**14 ta**) tumanlarida qayd etilgan, nisbatan past ko'rsatkichlar esa Sergeli (**1 ta**), Uchtepa (**2 ta**) va Yashnobod (**4 ta**) tumanlarida kuzatilgan.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari asosan Mirzo Ulug'bek va Chilonzor (**12 tadan**), Yunusobod (**8 ta**) va Shayxontoxur (**6 ta**) tumanlarida joylashgan, nisbatan past ko'rsatkichlar Sergeli (**1 ta**), Yashnobod (**3 ta**), Mirobod (**4 ta**) tumanlarida qayd etilgan. Bektemir va Yangihayot tumanlarida esa ushbu toifadagi tashkilot mavjud emas.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)


[Faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

[Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar

Toshkent shahrida 2024/2025-o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar sonini o'sishi kuzatilgan. Ularning umumiy soni **155,2 ming nafarni** tashkil etgan va 2020/2021-o'quv yiliga nisbatan **131,8 ming nafarga**, ya'ni **6,6 barobarga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida qayd etilgan davr davomida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan qizlar soni **69,8 ming nafarga**, ya'ni **2,4 baravarga**, o'g'il bolalar soni esa **85,4 ming nafarga**, ya'ni **2,0 barobarga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami qabul qilingan talabalar soni	jamiga nisbatan tumanlarning ulushi, % da	qabul qilingan talabalar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalavriatga qabul	magist-raturaga qabul
Toshkent sh.	155,2	40,7	69,8	85,4	144,5	10,7
<i>tumanlar</i>						
Uchtepa	5,9	3,8	5,2	0,7	5,4	0,5
Bektemir	-	-	-	-	-	-
Yunusobod	28,6	18,7	12,3	16,3	27,4	1,2
Mirzo Ulug'bek	9,9	6,4	3,1	6,8	8,4	1,5
Mirobod	13,7	8,8	4,8	8,9	12,1	1,6
Shayxontoxur	10,1	6,5	4,7	5,4	8,6	1,5
Olmazor	21,4	13,8	10,1	11,3	19,3	2,1
Sergeli	0,9	0,6	0,5	0,4	0,8	0,1
Yakkasaroy	37,5	24,9	17,1	20,4	36,8	0,7
Yashnobod	2,6	1,7	1,1	1,5	2,4	0,2
Yangiheyot	-	-	-	-	-	-
Chilonzor	24,6	16,0	10,9	13,7	23,3	1,3

2024/2025-o'quv yili boshida, oliy ta'lim tashkilotlariga eng ko'p qabul qilingan talabalar soni Yakkasaroy (**37,5 ming**), Yunusobod (**28,6 ming**) va Chilonzor (**24,6 ming**) tumanlarida kuzatilgan, nisbatan kam talabalar Sergeli (**0,9 ming**), Yashnobod (**2,6 ming**) va Uchtepa (**5,9 ming**) tumanlarida qabul qilinganligi qayd etilgan.

Kuzatilayotgan davr davomida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, ularning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **45 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **55 % ni** tashkil etgan. O'z o'rnida, Yakkasaroy (qiz bolalar ulushi ushbu hududdagi umumiy qabulning **24,9 % ini** tashkil etgan), Yunusobod (**8,1 %**) va Chilonzor (**7,2 %**) tumanlarida qabul qilingan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalarga nisbatan yuqori bo'lgan. Yashnobod (**0,7 %**) va Mirzo Ulug'bek (**2,0 %**) tumanlarida esa aksincha, qabul qilingan qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan kamroq bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat yo'nalishlariga qabul qilingan talabalar soni](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura mutaxassislariga qabul qilingan talabalar soni](#)

III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar

Toshkent shahrida 2020/2021- o'quv yilidan 2024/2025- o'quv yiligacha bo'lgan davr mobaynida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni ortib borayotganligi kuzatilgan. Ushbu davr ichida talabalarning umumiy soni **353,9 ming kishiga**, ya'ni **2,9 barobarga** ko'paygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan davrda oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan qiz bolalar soni **246,4 ming kishiga**, ya'ni **3,2 barobarga**, o'g'il bolalar soni esa **293,0 ming kishiga**, ya'ni **2,7 barobarga** oshgan. 2024/2025- o'quv yili boshida talabalarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **45,7 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **54,3 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami talabalar soni	jamiga nisbatan tumanlarning ulushi, % da	tahsil olayotgan talabalar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav-riatda o'qiyotganlar	magist-raturada o'qiyotganlar
Toshkent sh.	539,4	37,6	246,4	293,0	518,3	21,1
<i>tumanlar</i>						
Uchtepa	24,1	4,5	20,6	3,5	22,1	2,0
Bektemir	-	-	-	-	-	-
Yunusobod	87,8	16,3	33,1	54,7	84,5	3,3
Mirzo Ulug'bek	34,3	6,4	10,9	23,4	32,6	1,7
Mirobod	45,9	8,5	15,8	30,1	44,2	1,7
Shayxontoxur	33,8	6,3	16,1	17,7	32	1,8
Olmazor	84,9	15,7	37,4	47,5	82,1	2,8
Sergeli	2,7	0,5	1,5	1,2	2,6	0,1
Yakkasaroy	96,7	17,9	50,8	46,3	93,8	2,9
Yashnobod	8,6	1,6	3,9	4,7	7,6	1,0
Yangiayot	-	-	-	-	-	-
Chilonzor	120,6	22,4	56,7	63,9	116,8	3,8

2024/2025-o'quv yili boshida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning eng katta qismi Chilonzor (**120,6 ming**), Yakkasaroy (**96,7 ming**) va Yunusobod (**87,8 ming**) tumanlarida qayd etilgan, nisbatan kam ko'rsatkich esa Sergeli (**2,7 ming**), Yashnobod (**8,6 ming**) va Uchtepa (**24,1 ming**) tumanlarida kuzatilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)
[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(qiz bolalar\)](#)
[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(o'g'il bolalar\)](#)
[Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)
[Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Har 10 000 aholiga nisbatan oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni](#)

IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

2024-yilda Toshkent shahridagi oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni **54,6 ming kishini** tashkil etgan va 2020-yilga nisbatan ularning soni **27,1 ming kishiga**, ya'ni **2,1 barobarga** oshgan. Bitiruvchilarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **42,5 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **57,5 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni
(tegishli yili uchun, ming kishi)



Yuqorida qayd etilgan davr mobaynida oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan qiz bolalar soni **13,1 mingtaga**, ya'ni **2,3 barobarga**, o'g'il bolalar soni esa **14,3 mingtaga**, ya'ni **1,8 barobarga** oshgan.

**Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi**
(2024-yil uchun, ming kishi)

	Jami bitiruvchilar soni	jamiga nisbatan tumanlarning ulushi, % da	bitiruvchilar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav-riyat bitiruv-chilari	magist-ratura bitiruv-chilari
Toshkent sh.	54,6	25,8	23,2	31,4	50,2	4,4
<i>tumanlar</i>						
Uchtepa	4,5	8,2	3,7	0,8	4,5	-
Bektemir	-	-	-	-	-	-
Yunusobod	6,7	12,3	1,7	5	5,7	0,9
Mirzo Ulug'bek	3,5	6,4	0,9	2,6	3,5	-
Mirobod	8,0	14,7	2,7	5,3	7,0	0,9
Shayxontoxur	2,2	4,0	1,6	0,6	2,2	-
Olmazor	12,4	22,7	3,9	8,5	11,4	1
Sergeli	-	-	-	-	-	-
Yakkasaroy	3,8	7,0	1,9	1,9	3,2	0,6
Yashnobod	1,7	3,1	0,9	0,8	1,7	-
Yangiheyot	-	-	-	-	-	-
Chilonzor	11,8	21,6	5,9	5,9	10,8	1

Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining eng ko'p qismi Olmazor (**12,4 ming**), Chilonzor (**11,8 ming**) va Mirobod (**8,0 ming**) tumanlarida qayd etilgan, nisbatan kam qismi esa Yashnobod (**1,7 ming**), Shayxontoxur (**2,2 ming**) va Mirzo Ulug'bek (**3,5 ming**) tumanlarida to'g'ri kelgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Olmazor (qiz bolalar ulushi ushbu hududdagi bitiruvchilarning umumiy sonidan **22,7 % ni** tashkil etgan), Chilonzor (**21,6 %**) va Mirobod (**14,7 %**) tumanlarida bitiruvchilarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushiga nisbatan yuqori bo'lgan. Yashnobod (**3,1 %**), Shayxontoxur (**4,0 %**) va **Mirzo Ulug'bek (6,4 %)** tumanlarida esa aksincha, qiz bolalar ulushi o'g'il bolalarga nisbatan kamroq bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)

2024/2025-o'quv yili boshida Toshkent shahridagi oliy ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan professor-o'qituvchi xodimlar soni (o'rindoshlarsiz) **49,6 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021-o'quv yili boshiga nisbatan **17,5 ming kishiga**, ya'ni **54,5 % ga** oshgan. O'z o'rnida, ayol-o'qituvchilar soni **8,7 ming kishiga**, ya'ni **61,3 % ga**, erkak-o'qituvchilar soni esa **8,8 ming kishiga**, ya'ni **49,2 % ga** ko'paygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan davrda professor-o'qituvchi xodimlarning (o'rindoshlarsiz) umumiy sonidan ayollar ulushi **46,2 % ni**, erkaklar ulushi esa **53,8 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025-o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami professor- o'qituvchi xodimlar soni	jamiga nisbatan tumanlarning ulushi, % da	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Toshkent sh.	18,9	38,1	9,5	9,4	50,3	49,7
<i>tumanlar</i>						
Uchtepa	0,9	4,8	0,8	0,1	88,9	11,1
Bektemir	-	-	-	-	-	-
Yunusobod	3,1	16,4	1,7	1,4	54,8	45,2
Mirzo Ulug'bek	1,8	9,5	0,9	0,9	50,0	50,0
Mirobod	2,1	11,1	1,0	1,1	47,6	52,4
Shayxontoxur	1,4	7,4	0,7	0,7	50,0	50,0
Olmazor	3,4	18,0	1,7	1,7	50,0	50,0
Sergeli	0,1	0,5	0,1	-	100,0	0,0
Yakkasaroy	2,0	10,6	0,2	1,8	10,0	90,0
Yashnobod	0,5	2,6	0,3	0,2	60,0	40,0
Yangiheyot	-	-	-	-	-	-
Chilonzor	3,6	19,0	2,1	1,5	58,3	41,7

Oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchi xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni bo'yicha yuqori ko'rsatkich Chilonzor (**3,6 ming**), Olmazor (**3,4 ming**) va Yunusobod (**3,1 ming**) tumanlarida qayd etilgan, nisbatan kam ko'rsatkich esa Sergeli (**0,1 ming**), Yashnobod (**0,5 ming**) va Uchtepa (**0,9 ming**) tumanlarida kuzatilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o'qituvchi xodimlarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Sergeli (ayollar ulushi ushbu tumandagi professor-o'qituvchi xodimlarining umumiy sonidan **100 % ni** tashkil etgan), Uchtepa (**88,9 %**) tumanlari va Yashnobod (**60,0 %**) ayol o'qituvchilar ulushi yuqori bo'lgan. Yakkasaroy (**10,0 %**), Mirobod (**47,6 %**) Olmazor va Shayxontoxur (**50,0 % dan**) tumanlarida esa, aksincha, ayollar ulushi nisbatan past bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari \(o'rindoshlarsiz\) soni](#)

VI. Oliy ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'zbekiston Respublikasida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistika hisoboti – **1 oliy ta'lim shakli yillik** "Oliy ta'lim tashkilotining hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur statistika hisobotini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining statistika hisoboti qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchi xodimlar soni, ta'lim shakllari va turlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchi xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 100000, Toshkent sh.,
Amir Temur ko'chasi, 11
El. manzil: ijtimoiy_soha@toshstat.uz
Tel.: 71-203-88-27

